

BARCHA SOHALARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Suyunov Dilmurod Xolmurodovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,

"Korporativ boshqaruv nazariyasi va amaliyoti" kafedrasini mudiri,

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Baymuxamedova Sevara Sherzod qizi

Biznesni boshqarish MBA-KB-23- B01 sirtqi gurux magistranti

Annotatsiya: Maqolada Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlarda Xususan,, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish olib borilayotgan ishlar taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: Axborot, integratsiya, geoportal, infratuzilma, boshqarish, yaratish, ijtimoiy soha, raqamlashtirish, elektron hukumat, kadrlar.

Abstract: In the article, the active development of the digital economy in our country, complex measures for the widespread introduction of modern information and communication technologies in all sectors, in particular, public administration, education, health and agriculture, improvement of the electronic government system, further development of the local market of software products and information technologies was analyzed.

Keywords: Information, integration, geoportal, infrastructure, management, creation, social sphere, digitization, e-government, personnel.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning

axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi amalga oshirilmoqda. raqamlashtirilishi zarur bo‘lgan jami 715 ta davlat xizmatidan 370 tasi raqamli platformaga o‘tkazildi o‘tgan yili davlat xizmatlaridan 12 million aholi foydalandi raqamlashtirish natijasida 70 dan ortiq turdagi ma’lumot va hujjatlarni aholidan talab qilish bekor bo‘ldi so‘nggi ikki yilda 215 ta IT-ta’lim markazlari ochildi 2022 yilda IT-park rezidentlari 5 trillion so‘mlik xizmatlar ko‘rsatgan, 140 million dollarlik xizmatlarni eksport qilindi

Jahon iqtisodiyoti global pandemiya sharoitida tarmoqlarning o‘zgarishi, bu jarayonning raqamlashuvi, mobillashuvi, barcha sohalarga sun’iy intellektning joriy etilishi bilan bog‘liq muhim davrni boshdan kechirmoqda. BMT tomonidan keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 yilga kelib, dunyo bo‘yicha yalpi ichki mahsulotning qariyb chorak qismi raqamli texnologiyalarga bog‘liq bo‘lib qolishi prognoz qilinayotgan hozirgi sharoitda, bu yo‘nalishdagi ishlarni jadallashtirish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish eng to‘g‘ri strategik yo‘nalish hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan parlamentga yo‘llangan Murojaatnomada ta’kidlanganidek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish O‘zbekiston uchun kelgusi yillarda eng dolzarb va ustuvor yo‘nalishlardan biri. Yurtimizda 2020 yil “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilingani ham bejiz emas. 2020 yilda AKT sohasida bir qator yirik loyihalar amalga oshiriladi.

2020 yil 28 aprelda **“Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** Prezident qarori qabul qilindi. Hujjatga muvofiq, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligida raqamli iqtisodiyot bilan shug‘ullanadigan yaxlit tizim yaratildi. Jumladan, “Elektron hukumat”, iqtisodiyot tarmoqlari va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, IT parklarni tashkil etish va boshqarish kabi vazifalar to‘liq vazirlik vakolatiga o‘tdi. Shu bilan birga, qarorda yangi loyihalarining moliyaviy manbalari ham aniq ko‘rsatilgan. “Elektron hukumat” doirasida 1,3 trillion so‘mlik 104 ta loyiha, iqtisodiyotning real sektorida 5,3 trillion so‘mlik 87 ta loyiha, telekommunikatsiyalar borasida 15,1 trillion so‘mlik 35 ta, agrar sohada 24 ta, IT parklar bo‘yicha 18 ta loyiha amalga oshirilishi belgilangan. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga davlat idoralari ma’lumotlar bazasini tasniflab, ularni idoralararo integratsion platformaga ulash, elektron hamkorlikning yagona texnologik talablarini joriy qilish vazifasi qo‘yildi.

Shu bilan birga telekommunikatsiya xizmatlari uchun tarif narxlari arzonlashmoqda. 2019 yil davomida provayder va operatorlar uchun tashqi kanalga ulanish tariflari narxi **1 Mbit/s. uchun 85 ming** so‘mdan **75 ming** so‘mgacha (**17 foizga**) arzonlashtirilgandi. 2020 yilning 1 yanvaridan operator va provayderlarga internet xizmatlari uchun tarif

o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34 foizga arzonlashtirilib, 1 Mbit/s. uchun 56,0 ming so'mni tashkil etdi. E'tiborli jihati shundaki, bozor iqtisodiyoti talablariga ko'ra, tizimli ravishda internet xizmatlari narxlari kamaytirilib borilmoqda.

Joriy yil mart oyida "O'zbektelekom" AK tomonidan yirik xorijiy IT-kompaniyalarining server uskunolari va ko'plab xizmatlari mahalliyashtirildi. Bu butun O'zbekiston uchun muhim bir voqeadir. Yirik internet xizmatlarini O'zbekiston Respublikasi hududida mahalliyashtirish Internet foydalanuvchilari ushbu xizmatlar tomonidan taqdim etiladigan audio va video kontentlarni, dasturiy ta'minot va boshqa kontentlarni yuklab olish tezligini oshirishga yordam beradi. AKT sohasi serqirra va keng ko'lamliligi bilan ajralib turadi.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va "Elektron hukumat" tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 18 maydagi, PQ-4321-sonli Qarori.
2. "Raqamli o'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi Pf-6079-sonli farmoni.
3. Суюнов Д. Х. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография //Т.: Академия. – 2007. – Т. 200.
4. Суюнов, Д., and Элмурод Абдусатторович Хошимов. "Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув самарадорлигини баҳолашнинг методологик жиҳатлари." *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар* илмий электрон журнали 2 (2018).
5. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – С. 2321-6247.
6. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – С. 2321-6247.
7. Davletyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. Digitalization of the economy: concepts, problems and implementation strategy //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – Т. 12. – С. 209-218.

8. Davletyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. State regulation of the digital transformation of the economy //American Journal of Business Management, Economics and Banking. – 2023. – Т. 9. – С. 145-150.

9. Суюнов Д. Х. Бизнес муҳитнинг ривожланишига корпоратив бошқарув механизмини жорий этишни такомиллаштириш. и. ф. д. дисс //И. ф. д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – 2008. – Т. 261.

10. Olimovich A. K., Butabaev M., Kh S. D. PROJECT MANAGEMENT IN THE SYSTEM OF STRATEGIC COMPANY MANAGEMENT //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 7. – С. 40-44.

11. Суюнов Д., Хошимов Э. Замонавий шароитларда Ўзбекистонда корпоратив бошқарув тизими ривожланишининг асосий йўналишлари //Экономика и инновационные технологии. – 2019. – №. 4. – С. 197-210.

12. Davletyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. STATE REGULATION OF THE DIGITAL TRANSFORMATION OF THE ECONOMY //American Journal of Business Management, Economics and Banking. – 2023. – Т. 9. – С. 145-150.

13. Suyunov D. K. Scientific Foundation For Implementation Of The Compliance Control System At Corporate Enterprises //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 06. – С. 138-145.

14. Davletyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. State Regulation of the Digital Transformation of the Economy //American Journal of Business Management, Economics and Banking. – 2023. – Т. 9. – С. 145-150.

15. Суюнов Д., Хошимов Э. Замонавий шароитларда Ўзбекистонда корпоратив бошқарув тизими ривожланишининг асосий йўналишлари //Экономика и инновационные технологии. – 2019. – №. 4. – С. 197-210.

16. Suyunov D. K. Scientific Foundation For Implementation Of The Compliance Control System At Corporate Enterprises //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 06. – С. 138-145.

17. Suyunov D. X., Xoshimov E. A. The main directions of development of the corporate governance system in Uzbekistan in modern conditions //Economics and Innovative Technologies. – 2019. – Т. 2019. – №. 4. – С. 11.

18. Suyunov D., Kenjabaev A. Achievements And Problems in Further Development of The Digital Economy in UzbekistanScientific Considerations //Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 38-45.